

MOLIYAVIY NAZORATDA AUDIT VA TAFTISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Odilova Zulfiya Odilovna

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Audit” mutaxassisligi magistranti

Xidirov Fayoz G‘apirovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Audit” mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada moliyaviy nazoratning zarurligi, moliyaviy nazoratning audit va taftish usullarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning o‘xshash va farqli jihatlarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: moliya, nazorat, mablag‘, audit, taftish, tekshiruv, hisobot, tahlil.

ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of the need for financial control, specific features of financial control audit and inspection methods, and their similarities and differences.

Keywords: finance, control, funding, audit, audit, review, report, analysis.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ необходимости финансового контроля, особенностей методов аудита и проверки финансового контроля, их сходств и различий.

Ключевые слова: финансы, контроль, финансирование, аудит, ревизия, проверка, отчет, анализ.

KIRISH

Dunyo xo‘jaligi taraqqiyotida bugungi davr nafaqat turli global, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, texnogen hodisalar bilan, balki xalqaro iqtisodiy hamkorlik, investitsion faollikning oshishi bilan ham ajralib turadi.

Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasiga ko‘ra, **“Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish”¹**, **“Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish”²** masalalari iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy o‘shish tendensiyalarini ta‘minlashdagi asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda moliyaviy nazoratning zamonaviy va samarali usullaridan foydalanish amaliyotini yanada rivojlantirish va xalqaro standartlar asosida tashkil etish alohida dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, moliyaviy nazoratning audit va taftish usullaridan samarali foydalanish xo‘jalik yurituvchi subyektlar mablag‘larini turli moliyaviy xatarlardan himoyalash bilan bir qatorda mablag‘larni samarali boshqarish, unumsiz xarajatlarni qisqartirish, mablag‘larning talon-taroj qilinishini oldini olish imkonini beradi. Xususan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini moliyaviy nazorat qilishda audit ustuvor mavqiyega ega bo‘lsa, byudjetdan moliylanadigan tashkilot va muassasalar moliyaviy nazoratida taftish samarali usullardan hisoblanadi. Ammo, ushbu usullarning samaradorligini oshirishda shunday o‘ziga xos xususiyatlar mavjudki, ularni tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar sharxi: Moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o‘rni, ahamiyati, auditni tashkil etishning umumiy va ilmiy asoslari, takomillashtirish masalalari mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan A.K.Ibragimov, M.M.To‘laxo‘jayeva, N.Y.Jo‘rayev, N.S.Sanayev, R.D.Do‘smuratov, S.V.Vohidov, E.A.Akramov, H.N.Musayev, A.Usanov, K.B.O‘razovlarning ilmiy asarlarida juda yaxshi yoritilgan. Biroq, nazariy manbalar tahlillaridan ko‘rinadiki, mustaqillik yillaridan boshlab moliyaviy nazoratda taftish usulining qamrovi biroz kamayib, asosan auditning salmog‘ini oshib borishi hamda ijobiy natijalari o‘zini yaqqol namoyon qilayotganligini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoniga](#) 1-ilova. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi. 26-maqsad [.www.lex.uz](#).

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoniga](#) 1-ilova. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi. 27-maqsad [.www.lex.uz](#).

ko'rish mumkin. Chunki iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, korxonalar va tashkilotlarda davlat ulushining yildan-yilga kamayib borayotganligi va xususiylashtirish jarayonlarining amalga oshirilayotganligi asosiy omillardan hisoblanganda, moliyaviy nazoratda taftish usulidan foydalanilayotganligi audit va taftishning o'ziga xos xususiyatlarini, muayyan belgilarga asoslangan farqli jihatlarni tadqiq etishni taqazo qiladi.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot usullari sifatida monografik kuzatuv, mantiqiy tafakkur, qiyosiy tahlil, hisob-kitob va solishtirish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, audit - bu iqtisodiy jarayon bo'lib, unda yetarli bilimga ega bo'lgan va maxsus malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axboroti to'g'riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlab, o'z fikrini bildirishidir.

Agar G'arb mamlakatlarida auditdan 150 yildan buyon foydalanib kelinayotgan bo'lsada, O'zbekistonda mustaqil faoliyat sohasi sifatida xo'jalik yuritishda davlat monopoliyasidan voz kechish va bozor iqtisodiga o'tish natijasida mustaqilligimizning dastlabki yillaridan shakllana boshladi. Shuning uchun auditorlik faoliyati rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish shart, deb hisoblaymiz. Chunki, mamlakatimiz mustaqilligiga qadar korxonalar va tashkilotlar xo'jalik faoliyatini moliyaviy nazorati asosan nazorat va taftish orqali amalga oshirilgan.

Amaliyotda nazorat va taftish, audit oddiygina qilib, "tekshirish" deb yuritiladi. Ammo, tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, bu tushunchalar bir-biriga juda yaqin bo'lsada, ularni bir xil, yoxud "tekshirish" deb tushunish to'g'ri emas. Xususan, mamlakatimizda erkin tovar-pul munosabatlariga o'tish va mulk shakllarining o'zgarishi taftish o'tkazish borasida juda katta o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Ma'lumki, audit va taftish tushunchalari keng ma'noda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyati ustidan o'rnatiladigan moliyaviy nazoratni tashkil etish usullari hisoblanadi. Nazariy manbalar tahliliga ko'ra, audit va taftishning o'xshash jihatlari ko'p bo'lsada, ammo qat'iy tafovutga ega farqli jihatlari ham mavjud. Shuning uchun ham moliyaviy nazorat shakllari va usullarini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda audit va taftish o'rtasidagi farqlarni qiyosiy solishtirishda ularning maqsadi, tavsifi, o'zaro huquqiy munosabat asoslari, boshqaruv aloqalari, xizmatlarga to'lov tamoyillari, amaliy masalalar, natijalar kabi o'ziga xos xususiyatli belgilaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Biz quyidagi analitik jadvalda audit va taftishning o'ziga xos xususiyatlarini yuqorida qayd etgan belgilar bo'yicha qiyosiy tahlilini keltiramiz (1-jadval).

1-jadval

Moliyaviy nazoratning audit va taftish usullari o'rtasidagi farqlarning qiyosiy tahlili.

| № | Farq qiladigan belgilar | Audit | Taftish |
|----|-----------------------------------|---|---|
| 1 | Maqsadlari | moliyaviy hisobot ishonchliligi yuzasidan fikr bildirish, xizmatlar ko'rsatish, mijozga yordam berish va hamkorlik qilish; | bartaraf etish maqsadida kamchiliklarni aniqlash va aybdor shaxslarni jazolash; |
| 2. | Tavsifi | ishbilarmonlik, tadbirkorlik faoliyati; | ijroya faoliyat, farmoyishlarni bajarish; |
| 3. | O'zaro huquqiy munosabat asoslari | Fuqarolik huquqi, xo'jalik shartnomalariga asosan amalga oshirish; | Ma'muriy huquq, majburiylik, yuqori tashkilot yoki davlat idoralari farmoyishlariga muvofiq amalga oshirish; |
| 4. | Boshqaruv aloqalari | gorizontal (-) aloqalar, mijoz bilan munosabatlarda teng huquqlilik, uning oldida hisobot berish; | vertikal (!) aloqalar, yuqori bo'g'in tomonidan tayinlanish, ijrosi to'g'risida unga hisobot berish; |
| 5. | Xizmatlarga to'lov tamoyillari | to'lovni mijoz-korxonaga yoki auditorlik tekshiruvini buyurtmachisi shartnoma asosida amalga oshiradi; | to'lovni yuqori bo'g'in yoki davlat idorasi amalga oshiradi; |
| 6. | Amaliy masalalar | mijozning moliyaviy holatini yaxshilash, passiv (investor, kreditor)lar jalb qilish, mijozga maslahatlar bilan yordam berish; | aktivlarni saqlash, suiste'molchiliklarni bartaraf etish va oldini olish; |
| 7. | Natijalar | auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuzish bilan yakunlanadi. Moliyaviy hisobotning ishonchliligini tasdiqlovchi auditorlik xulosasining yakuniy qismi chop etilishi mumkin. | dalolatnoma-bu barcha aniqlangan, hatto ahamiyatsiz bo'lgan kamchiliklar qayd etilgan ichki hujjat. Dalolatnoma yuqori tashkilotga yoki boshqa idoralarga taqdim etilishi mumkin. |

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni keltirish mumkinki, moliyaviy nazoratning audit va taftish usullari o'rtasidagi yuqorida keltirilgan farqlarni umumiy xarakterdagi xususiyatli jihatlar deb qabul qilish mumkin. Chunki, sohaga tegishli ba'zi adabiyotlarda ushbu qiyosiy tahlil elementlari keltirilgan¹.

Ammo, tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, ayni davrda taftishning o'rnini tadbirkorlik subyektlari uchun bozor talablariga mos keluvchi audit, yoxud uning turlari egallashi tezlashgan bo'lsada, ushbu holat milliy iqtisodiyotda taftish butunlay yo'qoladi, degani emas. Chunki, byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning mavjudligi moliyaviy nazoratda taftishdan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

¹ Musayev H.N. Audit. Darslik. -T.: 2003.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. T.: 2021 yil 25 fevral, O‘RQ-677-son, Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoniga](#) 1-ilova. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi. 26-maqсад .www.lex.uz.
3. Tulaxodjayeva M.M. O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. O‘quv qo‘llanma. -T.: 1996.
4. Musayev H.N. Audit. Darslik. -T.: 2003.
5. Jo‘raqulovna J.G. MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISHNING TASHKILIIY-ILMIY ASOSLARI //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – C. 216-221.
6. Jumayeva G.J., qizi Yakhshikulova M.T. ANALYSIS OF PROBLEMS IN ORGANIZING INTERNAL AUDIT IN JOINT STOCK COMPANIES //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 764-769.
7. Jumayeva G.J., qizi Sultonova M.O. SCIENTIFIC BASIS OF IMPROVING THE AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN BUSINESS ENTITIES //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 770-773.